ZAMONAVIY TA'LIMDA TEXNOLOGIYALARNI RIVOJLANTIRISHNI JORIY ETISH

Shukurova Durdona Nuryigit qizi - Guliston davlat pedagogika instituti 2- kurs

Annotasiya: Zamonaviy ta'lim va innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish,ta'limga yondashuv haqida tushuncha,va zamonaviy dars o'tish usullarining o'ziga xos xususiyatlari,o'rni va ahamiyati masalasi muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: Ta'lim sifati, innovatsion faoliyat, yondashuv, axborot, zamonaviy ta'lim, texnologiya, ilg'or tajriba, axborot va kommunikatsion ta'lim.

Innovatsion ta'lim texnologiyasi - bu ta'lim jarayonlarining samaradorligini oshirish va ijtimoiy - iqtisodiy rivojlantirishning hozirgi tendensiyalarga eng mos keladigan ta'lim faoliyati va shart sharoitlarini yaratish uchun mavjud usullar va vositalarni yangi va sifat jihatlarini yaxshilashni o'z ichiga olgan ta'lim faoliyatini tashkil etish metodologiyasi.

Ta'lim sifatini yaxshilashning asosiy vositalardan biri bu, zamonaviy texnologiyalardir. Bugungi kunda deyarli barcha insonlar internet tarmog'idan: smartfon, komputer, planshet va boshqa qurilmalardan foydalanishni bilishadi. Maktab yoshiga yetgan bolalar ham qurilma va tarmoqlaridan deyarli muammosiz foydalana oladilar. Albatta, bu quvonarli holat va shu bilan birga o'qituvchilardan yaxshigina mahorat va bilim talab qiladi.

Pedagogning AKT sohasidagi bilim salohiyati va ularning malakasini oshirish orqali amalga oshiriladi. Dars, sifatini oshirish uchun o'qituvchilar AKT bo'yicha malakalarini oshirib borishi lozim va shu kabi talablarni bajarish maqsadida va individual ta'lim olish orqali o'z bilimlarini oshirish zamonaviy ta'lim hisoblanadi.

O'ylashimcha, zamonaviy o'qituvchilar ta'lim dasturlari, raqamli ta'lim resurslari va axborot resurslaridan foydalanishi va ma'lumotlar topishlari va ta'lim masalalarini hal uchun moslarini tanlaydi va axborot vositalaridan, shuningdek, skanerdan va raqamli moslamalar, videokamera, uskunalardan foydalanish kerakligini bilishlari lozim. Pedogogik kadrlarni pedagogik faoliyatga tayyorlashda ta'lim jarayoni axborot va axborot texnologiyalari tizimi va chuqur bilim berish zarur.

Innovatsiyalarni joriy etish muammolari:

Ta'lim sohasida innovatsion texnologiyalardan foydalanish biroz orqaroqda.

1. To'siqlar va eski dasturlar bo'yicha ishlashga odatlangan o'quvchilar hech narsani o'zgartirishni va o'rganishni, rivojlanishini xohlamaydilar.

2. Boshqalarning oldida kulgiga qolishi va uyalishi tufayli va qarorlar qabul qilishdan orqada qolishi.

3. Qo'rqish.O'ziga ishonmay, qobiliyatlarini ko'rsata olmaslik, o'zini past baholash, va o'z fikrlarini ochiq aytmaslikdan to'siqlarga uchrashi.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qanday qabul qilish kerak?

O'qituvchini fikrlashga undaydi va zamonaviy texnologiyalarda to'g'ri foydalana olish va ularni o'rganib kelajakda foydasi tegadigan kasb egasi bo'lish nazarda

tutiladi.Har bir shaxs texnologiyalaridan foydalanib, ularni hayotga qo'llashni tatbiq etishni qo'llay bilishlari ham kerak bo'ladi. Amaliyotda qo'llay olgan shaxs o'z kasbining mahoratli egasi hisoblanadi.

Zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning asosiy maqsadi - mustaqil ravishda ma'lumotlarni ijodiy izlanish va shu bilan birga ta'limdagi muammolarni bartaraf etib, texnologiyalarni hayotga tadbiq etib rivojlantirish hisoblanadi.

Ta'lim berish jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish o'zimiz hamda atrofdagilar uchun ham foydalidir. Chunki, hozirgi kunda raqamli texnologiyalardan foydalanish jadal rivojlanmoqda. Talim berish jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning bilim salohiyatini oshirish, hamda ta'limni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratilgan.

Zamonaviy ta'limda texnologiyalardan foydalanish ahamiyati nima uchun kerak?

Birinchidan, o'quvchilarning yoki talabalarning bilim saviyasini oshirish. Ularni o'z ustida ishlab yetuk kadr bo'lib yetishishiga yordam berish.

Ikkinchidan, dunyoning rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin egallash hamda, raqamli texnologiyalarni keng targ'ib qilish. Zamonaviy ta'limda keng sharoitlar yaratib, Vatanimiz ravnaqi yo'lida foyda keltirish asosiy maqsadimiz hisoblanadi.

Uchinchidan, zamonaviy texnologiyalardan foydalansak bilim, va malakalarni puxta egallaymiz. Chunki, zamonaviy ta'lim talab qilmoqda. Zamonaviy texnologiyalardan foydalansak qoloqlikdan ham chiqamiz.

Xulosa qilib aytish mumkinki, bugungi kunda o'qitish sifatini oshirish o'qituvchidan keng ko'lamli bilim va malakalarni talab qilmoqda. Chunki bugungi kunda talabalar ham zamonaviy texnologiyalar bo'yicha ma'lum darajada bilimga ega.O'quvchilar AKT asoslarini o'qituvchilardan bilim olishi bilan birga atrof muhit haqidagi bilimlarni ham o'zlashtirgani yaxshi, deb o'ylayman.

Shu bois, bugungi kunda o'qituvchilarning AKT va innovatsion texnologik ko'nikmalarini doimiy ravishda oshirish zaruriyati paydo bo'lib bormoqda.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy etishda maqsad o'quvchilarni zamonaviy axborot va texnologiyalar bilan yaqindan tanishish, hamda bu boradagi, savodxonligini oshirishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Azamxonov, B.S. & Burxanova, M.M.(2023). Oliy o'quv yurti talabalarining axborot kompetentsiyasini shakllantirish usullari. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 1 (17), 308-311.

2. Burxonova M.M. CISCO tarmoq texnologiyasi va uni kompyuter tarmoqlarini o'qitishdagi o'rni va samaradorligi. Интернаука. 2020. № 36 (165). С. 75-76.

3. Djalilov, M. L., Abdullaev, S. S., & Pulatov, G. G. (2016). Improve the strength of hmac based one time passwords using sha3 in hmac. In Современные научно-практические решения и подходы (pp. 42-44).

4. Kasimaxunova, A. M., Umarova, G. A., & Zokirov, S. I. O. G. L. The role of broad implementation of modeling on the subject of semiconductor in the higher education institutions.